



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

IMO ISHORA KONSEPTI VERBALIZATORLARIDA ANTONIMLIK VA SINONIMLIK XUSUSIYATLAR

Ganiyeva Dildora

Fargʻona davlat universiteti, (DSc), professor

Raxmonqulova Maftuna

Fargʻona davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada imo ishoralarning maʼno tizimi va ularning til orqali ifodalanish jarayoni oʻrganiladi. Verbalizatorlarning semantik xususiyatlari, xususan antonimlik va sinonimlik munosabatlari tahlil qilinib, ishoralarning kontekstga bogʻliq ravishda qanday mazmun kasb etishi koʻrsatib beriladi. Turli madaniyatlarda ishoralarning turlicha talqin qilinishi va bu holning maʼno oʻzgarishiga taʼsiri ham ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit soʻzlar: imo-ishoralar, verbalizatorlar, semantik xususiyat, sinonimlik, antonimlik, noverbal muloqot, madaniy kontekst.

ОСОБЕННОСТИ АНТОНИМИИ И СИНОНИМИИ В ВЕРБАЛИЗАТОРАХ КОНЦЕПТА ЖЕСТОВ И МИМИКИ

Ганиева Дилдора

Ферганский государственный университет, (DSc), профессор

Рахмонкулова Мафтуна

Ферганский государственный университет, докторант

Аннотация

В данной статье исследуется семантическая система жестов и процесс их вербализации в языке. Анализируются семантические особенности вербализаторов, в частности отношения антонимии и синонимии, а также показывается, как значение жестов изменяется в зависимости от контекста. Кроме того, рассматриваются культурные различия в интерпретации жестов и их влияние на трансформацию смысла.

Ключевые слова: жесты, вербализаторы, семантические особенности, синонимия, антонимия, невербальная коммуникация, культурный контекст.

FEATURES OF ANTONYMY AND SYNONYMY IN THE VERBALIZERS OF THE GESTURE CONCEPT

Dildora Ganiyeva

Fergana State University, (DSc), Professor

Maftuna Rakhmonqulova

Fergana State University, Doctoral Student

Abstract

This article examines the semantic system of gestures and the process of their verbalization in language. It analyzes the semantic features of verbalizers, particularly the relations of antonymy and synonymy, and explains how the meanings of gestures shift depending on context. The study also highlights cultural variations in the interpretation of gestures and how these differences influence the transformation of meaning.

Keywords: gestures, verbalizers, semantic features, synonymy, antonymy, nonverbal

communication, cultural context.

Imo- ishoralar konsepti verbalizatorlari deganda insonning turli ishora va harakatlari orqali ifodalangan ma'noni so'z vositasida izohlovchi birliklar tushuniladi. Ular ishoraning mazmunini til shakliga ko'chiradi va muloqotda aniqroq ma'no beradi. Masalan, boshni qimirlatish "tasdiq", qo'lni silkitish "inkor", yelka qisish "bilmayman", qo'lni ko'ksiga qo'yish "hurmat" ma'nosi bilan verbalizatsiya qilinadi. Bu birliklar iim-ishoraning semantik ko'lamini tushunishga yordam beradi.

Imo-ishoralarning semantik xususiyati ularning faqat tashqi harakat emas, balki ma'no tashuvchi, kontekstga mos ravishda turlicha talqin qilinadigan kommunikativ birlik ekanida namoyon bo'ladi. Har bir imo-ishora ma'lum mazmun doirasiga ega bo'lib, muloqot jarayonida hissiy munosabat, baholash, tasdiq yoki inkorkabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu semantik xususiyatlar tarkibida antonimlik va sinonimlik alohida o'rin tutadi. Bir imo-ishoraga mos keluvchi verbalizatorlarning sinonimlari ma'noni kuchaytirish, yumshatish yoki emotsional rang berish imkonini yaratadi. Aksincha, antonim verbalizatorlar ishoraning zid mazmunini ko'rsatib, ma'no chegaralarini aniqlaydi.

ADABIYOT TAHLILLARI VA METODLARI

Imo-ishoralar verbalizatorlarida antonimlik – bu insonning qo'l, tana yoki mimika orqali bergan ishorasini og'zaki tarzda ifodalaganda mazmunning qarama-qarshi ma'noda tushunilishi yoki ifodalanishi hisoblanadi. Ya'ni bir imo-ishora biror ijobiy ma'noni anglatasa, uni noto'g'ri verbalizatsiya qilish natijasida salbiy yoki mutlaqo teskari mazmun paydo bo'lishi mumkin. Bunda imo-ishoraning vaziyati, madaniy konteksti va nutq sharoiti muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir ishorani tilga ko'chirishda uning haqiqiy maqsadi, hissiy ohangi va muloqotdagi funksiyasini to'g'ri anglash zarur bo'ladi.

Turli madaniyatlarda imo-ishoralar turlicha talqin qilinishi natijasida ular verbalizatsiya jarayonida antonim ma'no kasb et. Masalan, Bolgariyada boshni yuqoriga–pastga qimirlatish "ha" degan ma'noni bersa, Yunonistonda bevosita "yo'q" degan ma'noni anglatadi. AQShda bosh barmoqni ko'tarish ma'qullash va ijobiy munosabat ifodasi bo'lsa, ayrim Yaqin Sharq davlatlarida bu ishora keskin salbiy yoki haqoratli ma'noga ega. G'arb mamlakatlarida odam o'ziga ishora qilish uchun ko'krigiga qo'lni tekkizadi, Yaponiyada esa burunni ko'rsatish odatiy hisoblanadi, shu bois bu ishora noto'g'ri verbalizatsiya qilinganda teskari talqin paydo bo'ladi. Hindistonda boshni yon tomonga tebratish "ha" yoki "tushundim" degan ma'noni anglatadi, lekin G'arbda bu harakat ko'proq noaniqlik yoki ikkilanish deya tushuniladi. Turkiyada qoshlarni ko'tarib, boshni orqaga tortish rad etish ishorasi bo'lsa, Yevropada u hayrat yoki befarqlik mazmunida qabul qilinadi. Imo-ishoralarni tilga ko'chirishda madaniy kontekst e'tibordan chetda qolsa, mazmun osonlikcha antonimga aylanadi.

Imo-ishoralar verbalizatorlarida sinonimlik hodisasi deganda bir xil ishoraning ma'nosini turli so'zlar orqali ifodalashga aytiladi. Bu hodisa ishoraning ma'nosini yanada boyitadi, uni turli vaziyatlarda aniqroq tushuntirishga yordam beradi. Masalan, odam boshini qimirlatib tasdiq bildirsa, bu ishora nutqda "ha", "rost", "to'g'ri", "albatta", "shunday" kabi turli so'zlar bilan berilishi mumkin. Ularning barchasi bir mazmunni anglatadi, ammo ohang va uslub jihatdan biroz farqlanadi. Biri qat'iy tasdiqni bildirsa, boshqasi yumshoqroq rozilik ma'nosini beradi. Hurmat ifodalovchi qo'lni ko'ksiga qo'yish ishorasi ham shunday sinonim so'zlar bilan boyitiladi. Masalan, "hurmat qilaman", "sizni qadrlayman", "minnatdorman", "rahmat aytaman" kabi ifodalar bir xil ishoraning turli vaziyatlarda qanday mazmun berishini ko'rsatadi. Bu so'zlarning har biri ishoraga o'ziga xos ohang beradi. Ayrimlari rasmiy hurmatni bildirsa, boshqalari samimiy minnatdorchilikni anglatadi. Sinonimlik imo- ishoralarning mazmun doirasini kengaytiradi va ularni tilga ko'chirish jarayonida aniq, tushunarli va vaziyatga mos tarzda ifodalash imkonini yaratadi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Imo-ishoralar konsepti verbalizatorlarida sinonimlik va antonimlik munosabatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, noverbal kommunikatsiya til tizimi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Inson muloqot jarayonida nafaqat so'zlardan, balki turli tana harakatlari, mimika va imo-ishoralardan ham faol foydalanadi. Bu esa imo-ishoralarning til orqali ifodalanishi, ya'ni verbalizatsiya jarayonini muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi. Ayniqsa, bir xil ishoraning turli verbal birliklar orqali ifodalanishi yoki aksincha, bir ishoraning qarama-qarshi ma'noda talqin qilinishi til va tafakkur o'rtasidagi murakkab semantik aloqalarni ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, imo-ishoralar verbalizatorlarida sinonimlik munosabatlari ko'pincha nutqning uslubiy xususiyatlari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bir xil ishorani ifodalovchi so'zlar turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha emotsional rang kasb etadi. Masalan, tasdiq ma'nosini bildiruvchi boshni qimirlatish ishorasi nutqda "ha", "albatta", "to'g'ri", "rost", "shubhasiz" kabi bir nechta sinonim birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Bu birliklar umumiy ma'nosi jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning nutqdagi qo'llanish darajasi, rasmiylik yoki samimiylilik darajasi farqlanadi. Shu sababli sinonim verbalizatorlar ishoraning ma'no doirasini kengaytirib, muloqotning yanada aniq va ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, imo-ishoralar verbalizatorlarida sinonimlik hodisasi ba'zan hissiy-psixologik holatlarni ifodalashda ham namoyon bo'ladi. Masalan, yelka qisish ishorasi odatda "bilmayman", "xabarim yo'q", "aniq emas", "ishonchim komil emas" kabi turli ifodalar bilan berilishi mumkin. Bu verbal birliklar ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, nutq vaziyatiga qarab turlicha semantik soyalar kasb etadi. Ayrim hollarda ular befarqlikni, ayrim hollarda esa ikkilanib qolishni yoki javobdan qochishni ham ifodalashi mumkin. Demak, sinonimlik nafaqat leksik birliklar o'rtasidagi o'xshashlikni, balki ularning pragmatik vazifalarini ham aks ettiradi.

Antonimlik munosabatlari esa ko'proq ishoraning mazmuni va uning noto'g'ri talqin qilinishi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, turli madaniy muhitlarda bir xil harakatning qarama-qarshi ma'noda tushunilishi antonim verbalizatsiya holatini yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, ayrim jamiyatlarda boshni yon tomonga silkitish inkor ma'nosini bildirsa, boshqa madaniyatlarda bu harakat tasdiq yoki rozilik ifodasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Shunday holatlarda bir xil ishoraning verbal ifodasi mutlaqo teskari ma'noda talqin qilinadi. Bu esa noverbal kommunikatsiyaning madaniy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Imo-ishoralarning antonimik verbalizatsiyasi ba'zan nutq jarayonidagi kontekst bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan, qo'lni silkitish harakati ayrim vaziyatlarda xayrlashuv ma'nosini bildirsa, boshqa holatda rad etish yoki e'tiroz bildirish ma'nosini ham anglatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ishoraning haqiqiy ma'nosini aniqlash uchun nutq konteksti, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati va kommunikativ vaziyat muhim rol o'ynaydi. Shu bois imo-ishoralarni tilga ko'chirish jarayonida kontekstual tahlil alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, imo-ishoralar verbalizatorlarida sinonimlik va antonimlik munosabatlari nafaqat til tizimining semantik xususiyatlarini, balki inson tafakkuri va madaniy tajribasini ham aks ettiradi. Noverbal belgilar orqali ifodlangan ma'no til vositasida qayta talqin qilinarkan, u muloqot jarayonida yangi semantik va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa imo-ishoralar va ularning verbal ifodalari o'rtasidagi aloqani kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, imo-ishoralar konsepti verbalizatorlarini tahlil qilish til va noverbal kommunikatsiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki madaniyatlararo muloqotni o'rganishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Imo-ishoralar konsepti verbalizatorlari inson harakati va til o'rtasidagi ma'no bog'liqligini anglashda muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida ishoraning mazmuni aniqroq talqin qilinib, muloqot jarayonida hosil bo'ladigan emotsional ma'nolar to'g'ri tushuniladi.

Sinonimlik ishoralarga oid maʼno doirasini kengaytirib, uning turli uslubiy tuslarda ifodalanishiga imkon beradi, shuningdek ishoraning hissiy ranglarini yanada boyitadi.

Antonimlik esa aksincha, maʼno chegaralarini keskinroq belgilab, ishoraning teskari yoki qarama-qarshi mazmun variantlarini aniqlashga xizmat qiladi. Turli madaniyatlarda imo ishoralarning farqli talqin qilinishi ushbu semantik munosabatlarni yanada murakkablashtirib, xuddi birgina harakatning boshqa madaniy muhitda butunlay boshqacha maʼno kasb etishiga olib keladi. Shuning uchun imo- ishoralarni qoʻllash va ularni tilga koʻchirish jarayonida vaziyatni, madaniy farqlarni va kommunikativ sharoitni toʻgʻri anglash muloqotning toʻlaqonli va aniq boʻlishi uchun katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan qaraganda, imo-ishoralar verbalizatorlari til tizimining semantik qatlamini boyituvchi muhim vositalardan biridir. Ular insonning hissiy holati, baholash munosabati va kommunikativ maqsadini ifodalashda faol qatnashadi. Masalan, insonning qoʻlini yoyib gapirishi koʻpincha ochiqlik yoki samimiyligni bildirsa, qoʻllarni koʻksiga chalishtirish ehtiyotkorlik yoki ichki qarshilik holatini ifodalashi mumkin. Bu harakatlar nutqda turli soʻz va iboralar orqali ifodalanib, muloqot jarayonida qoʻshimcha semantik maʼno hosil qiladi. Demak, imo-ishoralar verbalizatsiyasi jarayonida insonning kognitiv tajribasi va madaniy bilimlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pragmatik jihatdan qaralganda esa imo-ishoralar verbalizatorlari nutq vaziyatiga mos ravishda turlicha talqin qilinadi. Bir xil ishora turli kommunikativ sharoitlarda turlicha mazmun kasb etishi mumkin. Masalan, qoʻlni koʻtarish harakati bir vaziyatda eʼtibor qaratish yoki soʻz soʻrash maʼnosini bildirsa, boshqa holatda salomlashish yoki xayrlashuv belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ishoraning haqiqiy maʼnosi nutq konteksti, suhbatdoshlar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ maqsad orqali aniqlanadi. Imo-ishoralar verbalizatorlarini pragmatik jihatdan oʻrganish shuni koʻrsatadiki, ular nutqning taʼsirchanligini oshiruvchi muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Inson faqatgina soʻzlar orqali emas, balki tana harakatlari orqali ham oʻz fikrini kuchaytirishi yoki yumshatishi mumkin. Natijada verbal va noverbal vositalarning oʻzaro uygʻunligi muloqotning samaradorligini taʼminlaydi.

Bundan tashqari, imo-ishoralar verbalizatorlari nutqning ekspressivlik darajasini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda ishora orqali ifodalangan maʼno soʻz bilan ifodalangan mazmunga nisbatan kuchliroq taʼsir koʻrsatishi mumkin. Masalan, boshni sekin qimirlatish orqali bildirilgan rozilik baʼzan oddiy “ha” soʻzidan ham koʻra samimiyroq yoki ishonchliroq qabul qilinadi. Shu sababli noverbal belgilar til tizimining muhim semantik va pragmatik komponenti sifatida qaraladi. Umuman olganda, imo-ishoralar konsepti verbalizatorlarining kognitiv va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish inson muloqotining murakkab tabiatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa tilshunoslikda noverbal kommunikatsiya va uning semantik xususiyatlarini oʻrganish muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Argyle, M. Bodily Communication. Oxford University Press, 2013.
2. Birdwhistell, R. L. Introduction to Kinesics: An Annotation System for Analysis of Body Motion and Gesture. University of Louisville Press, 1970.
3. Ekman, P., Friesen, W. The Nature of Nonverbal Behavior. Cambridge University Press, 2009.
4. Karimova, G. Muloqot Madaniyati va Noverbal Belgilar Tizimi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
5. Kendon, A. Gesture: Visible Action as Utterance. University of Chicago Press, 2004.
6. Sikler, J. Culture and Gesture Interpretation in Intercultural Communication. Routledge, 2016.
7. Yusupova, M. Til va Nutqdagi Noverbal Vositalar Semantikasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018..